

**O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION
TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI
II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani**

UDK.631.633.5

**KANOP NAVLARINING O‘SISHI VA RIVOJLANISHIGA EKISH
MUDDATLARINING TA‘SIRI**

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti.

Agronomiya, seleksiya va urug‘chilik kafedrası

Abduraximov Nurali Normamatovich-dotsent.

Merganova Dilshoda Zokir qizi-magistr.

nabduraximov69@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0008-1961-7947>

Anotatsiya: Maqolada Surxondaryo viloyatinig bir xil tuproq iqlim sharoitida har xil:-20 mart, 30 mart, 10 aprel muddatlarida ekilgan ertapishar kanop 21-42 va 34-1 navlarining o‘shish rivojlanishi va hosil elementlarining shakllanishi o‘rganilganligi asosida eng samarali ekish muddati 30 mart ekanligi haqida ma’lumotlar bayon etilgan

Kalit so‘zlar. kanop, nav, ekish, muddat, urug‘ unuvchanlik, poya, uzunlik, diametr, ko‘sakchalar, 1000 dona urug‘ vazni, lub tola, chiqim, tola, uzilish og‘irligi.

Annotation:The article presents the results of a study conducted under the same soil and climatic conditions of the Surkhandarya region, where early-maturing hemp varieties 21-42 and 34-1 were sown on different dates - March 20, March 30, and April 10. Based on the research, it was found that the most effective sowing date for achieving optimal growth, development, and formation of yield elements is March 30.

Keywords: hemp, variety, sowing, date, seed germination, stem length, stem diameter, capsules, 1000-seed weight, bast fiber, yield, fiber strength.

Аннотация:В статье представлены результаты исследований, проведённых в одинаковых почвенно-климатических условиях Сурхандарьинской области, где раннеспелые сорта конопли 21-42 и 34-1 высевались в разные сроки - 20 марта, 30 марта и 10 апреля. На основе проведённых исследований установлено, что наиболее эффективным сроком

O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

посева для получения оптимального роста, развития и формирования элементов урожая является 30 марта.

Ключевые слова: конопля, сорт, посев, срок, всхожесть семян, длина стебля, диаметр стебля, коробочки, масса 1000 семян, лубяное волокно, выход, прочность волокна.

Kirish. Lub tolali ekinlardan kanop o‘simligi Toshkent viloyatida 1939 yildan sanoat miqyosida yetishtirilgan. O‘tgan asrning 80-yillarida 22 ming gektar maydonda parvarishlanib, 350 ming tonnadan ziyod kanop xom ashyosi tayyorlangan. [3] O‘zbekistonda, xom ashyo qayta ishlanib, 37 ming tonna tola olingan. Shundan 75-80 foizi Rossiya, Boltiq bo‘yi, Ukraina, Kuba, va Yevropa davlatlariga eksport qilingan. Qolgan 25-20 foizi chuqur qayta ishlanib, tayyor mahsulotlar olingan. [5;6]

Kanop nafaqat qimmatbaho tola olish uchun, balki urug‘i uchun ham yetishtiriladi. Chunki o‘simlik urug‘ining tarkibida 20 foizgacha texnik moy bo‘lib, u lak-bo‘yoq sanoati, sovun ishlab chiqarishda keng qo‘llaniladi. [3; 9]

Har qanday qishloq xo‘jalik ekini, jumladan kanop qulay muddatda ekilganda u yaxshi o‘sib rivojlanadi va yuqori hosildorlikni ta‘minlaydi. [3;8]

Kanop o‘simligi biologiyasiga ko‘ra samarali harorat 10⁰S dan yuqori bo‘lganda ekiladi. [4;9]

Toshkent viloyati sharoiti uchun eng qulay ekish muddati aprel oyining 1-2 o‘n kunligi deb tavsiya etilgan.[5]

Biroq, O‘zbekistonning janubi hisoblangan Surxonlaryo viloyati sharoitida kanop o‘stirilmaganligi uchun uning ekish muddati o‘rganilmagan. Surxondaryo viloyatining tuproq iqlim sharoiti Toshkent va boshqa viloyalarga nisbatan iqlimning barqaror emasligi, yoz oylarida harorat juda issiq +50 ⁰S dan yuqori, havosi quruq, uning namligi 10 % gacha past bo‘lishi, ba‘zan surunkali chang bilan issiq shamol esishi kabi holatlar ko‘pgina o‘simliklarning o‘sish rivojlanishiga salbiy ta‘sir qiladi. [7;8;]. Shu yuqoridagilarni inobatga olgan holda Surxodaryo viloyatining Termiz

O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

tumani sharoitida kanop ertapishar navlarining o‘shish rivojlanishiga ekish muddatlarning ta’sirini o‘rganish dolzarb masala hisoblanadi

Tadqiqotlar va uslublar: Dala tajribasi Termiz tumanining oziq moddalar bilan juda kam ta’minlangan sahro qumoq tuproqlari sharoitida o‘tkazildi. Ob’ekt sifatida kanopning 21-42, va 34-1 navlaridan foydalanildi. Bu navlar bir xil tuproq sharoitda har xil (20 mart, 30 mart, 10 aprel) muddatlarida ekildi. Taqqoslab o‘rganish uchun 20 mart muddatidan foydalanildi. Bo‘lmacha maydoni 100 kv.m, bo‘lmachalar 4 yarusda va 4 qaytariqda joylashtirildi. Urug‘lar qator orasi 70 sm, pushtada 2 qatorli, o‘simlik orasi 12 sm ekildi. Ekinni oziqlantirish uchun tavsiyaga binoan sof holda azot-200 kg, fosfor-150 kg va kaliyli-100 kg/ga me’yorda qo‘llanildi, 6 marta sug‘orildi. Tajribada urug‘ning unuvchanligi, fenologik kuzatishlar, biometrik o‘lchovlar, kanopning po‘stloq chiqimi, tola chiqimi va tola pishiqligi kabilar o‘rganildi. Ma’lumotlarni tahlil qilishda O‘z.METS (2011) va O‘ZPITI (2007) uslublaridan foydalanildi

Natijalar va ularning tahlili. Har xil muddatlarda ekilgan kanopning ertapishar navlari urug‘lari unuvchanligi bo‘yicha 21-42 navida 81 % dan 87 % gacha va 34-1 navida esa 82 % dan 89 % gacha o‘zgarish kuzatildi. Ta’kidlash joiz- 20 martda ekilgan urug‘larning unuvchaligi juda past 81-82 % ni tashkil etishining sababi tuproqda namlikning yuqori miqdorda bo‘lishi va bir vaqtda tuproq haroratining pastligidadir. Bu salbiy o‘zgaruvchanlikning ta’siri kanop o‘simligining butun amal davrida o‘simlik o‘shish-rivojlanish fazalarida kuzatildi. Erta muddatda (20 martda) ekilgan variantda o‘simliklar dastabki rivojlanish fazalarida havo namligining yuqori bo‘lishi hisobiga kasalliklar va hashorotlar bilan qisman bo‘lsada zararlanganligi kuzatildi, shuningdek o‘simliklarning bir tekis bo‘lmashligi, bo‘yi 4-6 smdan past, barglar soni 3-4 dona kam va kichik bo‘ldi. 10 aprel muddatida ekilgan kanop navlari o‘suv organlari bir xil bo‘lsada, uning o‘shish, rivojlanish, g‘unchalashi (o‘simlikning oziq moddalar va tashqi omillarga qulayligiga ta’sirchanligi muhim bo‘lgan- kritik davri) yozning juda issiq kunlari iyul oyiga mos

O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

kelganligi sababli 30 mart muddatda ekilganga nisbatan o‘sov va reproduktiv organlari bo‘yicha barcha ko‘rsatkichlari past bo‘ldi.(1 jadval).

O‘rganilgan navlarning vegetatsiya davri ekish muddatiga bog‘liq holda 31-42 navida 146-148 kun va 34-1 navida 138-141 kun va mutanosib ravishda o‘simlik bo‘yi 275 smdan 304 sm va 278 dan 326 smgacha bo‘lib o‘simlik uzunligi bo‘yicha 31-48 smgacha farqlanish borligi kuzatildi.

Ma‘lum bo‘lishicha kanop navlari poyasi diametrining kattaligi undagi po‘stloq va lub tola chiqimi ko‘p bo‘lishini ifodalaydi. Ekish muddatlari bo‘yicha navlarga bog‘liq holda poya diametri eng katta 9,5-10,2 mm, 30 aprel muddatida ekilganda kuzatildi. Shuningdek bu muddatda ekilgan o‘simliklarda eng ko‘p ko‘sakchalar soni 26-32 dona, bitta ko‘sakchadagi urug‘lar soni 15-17 dona. 1000 dona urug‘ning og‘irligi 23,1-24,1 gr, bo‘ldi.

**O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA
RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI
II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani**

1-jadval

Kanop navlarining o‘sov organlari va hosil elementlarining shakllanishiga ekish muddatlarining ta‘siri

t/r	Navlar	Ekish muddati, oy-kun	Urug‘lar o‘nuvchanligi.%	Amal davri, kun	O‘sim. bo‘yi, sm	bargl soni, dona	Poyasi diametri, mm	Ko‘sak chalar soni, dona	1 ta ko‘sak chadagi urug‘ soni, dona	1000 dona urug‘ vazni gr	Tola chiqimi, %	Tola uzlish og‘irligi. g/s
1		2		3	4	5		6	7		7	8
1	21-42	20 mart (nazorat)	81	148	304	83	9,6	27	16	23,0	21.01	22,6
2		30 mart	86	147	309	84	9,5	26	15	23,2	21,3	23,0
3		10 aprel	87	146	275	75	9,1	22	12	20,4	18,8	22,4
	EKF ₀₅									1,1 gr		1,2 g/s
1	34-1	20 mart (nazorat)	82	141	326	108	10,8	33	18	23,8	23,6	22,9
2		30 mart	88	139	330	110	10,6	32	17	24,1	24,0	23,6
3		10 prel	89	138	278	93	9,7	27	15	21,5	21,5	23,1
	EKF ₀₅									1,1 gr		1,2 g/s

O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

30 martda ekilgan kanop ertapishar navlarning tola chiqimi va tola uzilish og‘irligi bo‘yicha ijobiy ko‘rsatkichlarga erishildi, 31-42 navida tola chiqimi eng ko‘p 21,1%, tola uzilish og‘irligi-23 g/s va 34-1 navida tola chiqimi - 24,1%, tola uzilish og‘irligi- 23,6 g/s bo‘ldi.

O‘tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra xulosalar. 1.Surxondaryo viloyatida turli muddatlarda ekilgan kanop o‘simligining ertapishar navlarida urug‘ining o‘nuvchanligi, poyasining uzunligi va diametri, hosil elementlarning shakllanishi tola chiqimi har xil bo‘ldi.

2.Issiq va quruq iqlimli sharoitda kanopning ertapishar navlarining yaxshi o‘sib, rivojlanishi va hosil elementlarining yuqori ko‘rsatkichlarda bo‘lishini ta‘minlaydigan eng qulay ekish muddati 30 mart hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, “O‘zbekiston” NMIU, 2017.

2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. Toshkent, “O‘zbekiston” NMIU, 2017.

3.Ataboeva H.N., Xudoyqulov J.B “O‘simlikshunoslik”. Toshkent. 2020 y. 204 b.

4. Abduraximov N.N., Lukov M.K. “Kanop -lub tolali ekin”, Surxondaryo viloyatida muhandislik va agrotexnologiyalar sohalarini rivojlantirish istiqbollari mavzusidagi I xalqaro anjuman materiallari to‘plami 3-qism 365-366 bet. Termiz 2025.

5. Yusupov X., Anarbaev I.U., Azizov T.B. va boshqalar. “Toshkent viloyatida kanop yetishtirishda yangi texnologiyani qo‘llashga oid tavsiyalar”. Toshkent-2011 y.

6. O‘zbekiston sharoitida moyli o‘simliklarni yetishtirish agrotexnologiyasi bo‘yicha tavsiyalar. Toshkent – 2011

7. Lukov M.K, Abduraximov N.N., Juraniyozova D.B. “ Kanopni morfologiyasi va o‘stirishning hususiyatlari” Ilm-fan xabarnomasi SCIENCE

**O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION
TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**

II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

BULLETEN BECTHIK NAUKI volume -9, issue 2, sentyabr. 2025. worldly
knowledge7. y.

8. Lukov M.K., Abduraximov N.N. “Kanopni o‘stirish texnologiyasi Global ekologik muammolar cho‘llanish va oziq ovqat xavfsizligi” mavzusidagi xalqaro ilmiy amaliy anjuman materiallari 2-qism. Toshkent. 2025. 106-108 b.

9.Oripov. R.O.,Xalilov N.X. O‘simlikshunoslik. Toshkent 2006.